



MAHALLIY BYUDJETLARDA XARAJATLAR MAJBURIYATLARINING TAQSIMLASH MUAMMOLARI

Olimov Shohijahon Fozilxon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- July 2023 yil

Ma'qullandi: 28- July 2023 yil

Nashr qilindi: 31-July 2023 yil

KEY WORDS

Barcha darajadagi byudjet xarajatlarida yangi moddalarning yuzaga kelishi bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi bilan ham bog'liq

ABSTRACT

Ushbu maqolada Mahalliy byudjetlarda xarajatlar majburiyatlarining taqsimlash muammolari o'rganilib uni hududlar kesimida tahlil qilinib o'rganilib, xulosa qilingan..



Barcha darajadagi byudjet xarajatlarida yangi moddalarning yuzaga kelishi bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida kuchli ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi bilan ham bog'liq. Bu xarajatlar jumlasiga aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar uchun ajratiladigan xarajatlar kirib, ular bolali oilalar va kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar hamda byudjet hisobidan aholiga ijtimoiy ahamiyatdagi xizmatlarga qo'yiladigan narxlardagi farqlarni qoplashni o'z ichiga oladi.

Byudjet tizimi daromadlarini taqsimlashning asosiy vazifasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarini alohida byudjetlar o'rtasida shunday qayta taqsimlashdan iboratki, ulardan har biri o'ziga ajratilgan barcha xarajatlarni qoplaydigan mablag'lar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

Asosiy qism.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xarajatlarni taqsimlashda vakolatlar bo'linishi, soliqlarni birlashtirib qo'yish quyi byudjetlarga moliyaviy yordamlar taqdim etish shakllari turlichadir. O'zbekiston Respublikasida xarajat vakolatlarining aniq bo'lib qo'yish tartibining yo'qligi xarajatlarni quyi darajadagi byudjetlarga taqchilikni yuklash maqsadida qayta taqsimlashga imkon beradi, alohida xarajatlarning samarasiz moliyalashtirilishiga va keskin kamaytirilishiga olib keladi. Markaz tomonidan mahalliy byudjetlarni shakllantirish va ijro etish ustidan kuchli nazorat bo'lishiga qaramasdan mas'uliyatini va javobgarligini pasaytiradi.

Bizning fikrimizcha, xarajat vakolatlarini bo'lib berishda qoidaga ko'ra, har bir sohani moliyalashtiruvchi hukumat ulushini belgilaydi, shunga ko'ra aholini himoya qilish xarajatlari to'liq mahalliy byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Tabiiyki, aksariyat hollarda mahalliy byudjet mablag'lari ushbu maqsadlarga yetarli bo'lmaydi, bu esa byudjet ssudalari

oqimini ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu holatni bartaraf etish maqsadida moliyaviy mablag'larni Respublika byudjetidan maqsadli subventsionalar ko'rinishida berilishi lozim.

Haqiqatdan ham, byudjet xarajatlarini amalga oshirishda bir qator kamchiliklar mavjud. Xususan, byudjet mablag'larini hisobidan sotib olinadigan tovarlar bahosini sun'iy ravishda oshirish, byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatish hollari ko'p uchramoqda.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi mahalliy byudjetning, ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlarini ko'paytirish, fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishini ko'paytirish, keng ko'lamli ijtimoiy dasturlarni mablag' bilan ta'minlash manbalari bilan oqilona uyg'unlashtirib borilishini taqozo etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berilgan byudjetlarni mustahkamlash zarur. Mahalliy byudjet orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, aholini ijtimoiy himoya qilish moliyalashtirildiki, bu jarayonlar bugungi kunda davlat ijtimoiy siyosatining diqqat markazida turganligi bilan izoxlanadi. Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish xukumatimizning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada qo'llab-quvvatlashga xarakat qilinmoqda.

Biz bilamizki soliqlar YaIM ni taqsimlab byudjetga tushiradi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiradi. Davlatning ijtimoiy sohadagi siyosatini bevosita mahalliy byudjetlar orqali ustun ravishda amalga oshirib boriladi.

INNOVATIVE

Davlat soliq qo'mitasi [ma'lumotlariga ko'ra](#), respublika bo'yicha 2022-yilda soliq organlari tomonidan 148,4 trln so'm tushumlar ta'minlangan. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan (20,4 trln so'm) 16% ko'pni tashkil qilgan.[5]

Jumladan, soliq turlari kesimida:

- mol-mulk solig'idan 4 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,6 trln so'mga yoki 63%;
- yer solig'idan 5,3 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga yoki 30%;
- aylanmadan olinadigan soliqdan 2,5 trln so'm undirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 863 mlrd so'mga yoki 52%;
- QQSdan 32,8 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 7,2 trln so'mga yoki 28%;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan 24,3 trln so'm undirilib, 2021-yilga nisbatan 5,4 trln so'mga yoki 28% o'sishga erishildi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi davrida mahalliy byudjetlarning xarajatlari davlat byudjetida hajmi oshib bordi. Mahalliy byudjetlarning xarajatlari oshib borishi bilan birgalikda xarajatlar tarkibida ham o'zgarishlar amalga oshirildi, bevosita bozor iqtisodiyotiga o'tish hamda davlat tomonidan olib borilayotgan moliya-byudjet siyosati bilan bog'liqdir. Mahalliy byudjet xarajatlarning asosiy qismini ijtimoiy madaniy va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlari tashkil qilgan.

Davlatning kelgusi davrdagi maqsad va vazifalarini moliyalashtirishni ta'minlashning asosi negizi sifatida barcha darajalardagi byudjetlarni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish jarayoni muddatlari hamda bosqichlari jihatidan kelishilgan har bir bosqichning aniq ijrochilari ko'rsatilgan yagona byudjet tsikli bo'ladi. Belgilangan qat'iy kalendar muddatlari byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashlariga ko'maklashadi. Ayrim bosqichlarda muddatlarni o'zboshimchalik bilan belgilash esa butun jarayonni izdan chiqarib yuborishi mumkin. Bu esa birinchi navbatdagi sarf-xarajatlarning o'z vaqtida moliyalashtirilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetida, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida nazarda tutilgan ayrim xarajatlarni maqsadli moliyalashtirish uchun quyi byudjetlar hisobiga kiritiladigan daromadlarni respublika byudjetiga o'tkazishi mumkin».[1] Bu tartibda qayta taqsimlashdan shu narsa yaqqol ko'rinadiki, aksariyat holda mahalliy byudjetlar holati xech qanday himoyalangan. Bunday vaziyatda, mahalliy byudjetlar qo'shimcha daromad topishdan ko'ra respublika byudjeti mablag'larin o'z foydasiga qayta taqsimlash yuzasidan manfaatdor bo'lib qoladi.

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning ayrim turlarini mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bajarilishi g'oyat samarali bo'lishini tasdiqlaydigan ko'pdan-ko'p ilmiy dalillar mavjud. Ko'pgina hollarda davlatning xizmat ko'rsatish sohasidagi siyosati, birinchidan, turli ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida farq qilishi lozim, ikkinchidan, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlashtirish sohasida davlat siyosati maqsadlari bu vazifalarni markaziy hokimiyat organlariga yuklashni belgilab beradi.

Umuman olganda, davlat hokimiyati darajalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash to'g'risidagi umumiy bo'lgan gipotezalar ko'pgina munozaralarga sabab bo'ldi va ijtimoiy sektor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Hozirgi kunda ilmiy tadqiqotchilar davlat moliyasini boshqarishning asosiy muammolaridan biri-byudjeti tizimi darajalari o'rtasida xarajatlar vakolatlarini taqsimlash muammosidir deb hisobladilar. Birinchi marta federalizm sohasidagi tadqiqotchilaradn biri - A.Tokvil o'z asarida ko'rsatgan. A.Tokvil gepotezasi davlat hokimiyatining turli darajalari o'rtasida xarajatlar majburiyatini taqsimlashning asosiy tamoyillarini aniqlash orqali yanada oydinlashtiradi.

Ko'pgina hollarda davlatning xizmat ko'rsatish sohasidagi siyosati, birinchidan turli ma'muriy-hududiy birliklar o'rtasida farq qilishi lozim, ikkinchidan, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barkarorlashtirish sohasida davlat siyosati maqsadlari bu vazifalarni markaziy hokimiyat organlariga yuklashni belgilab beradi deb qaraladi.

Davlat moliyasi boshqarishning asosiy muammolaridan biri-davlat moliyasining tarkibiy tuzilishiga oid bo'lib, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlar majburiyatlarini vakolatlarining taqsimlanishidir. Bundan yuz yil avval byudjet federalizmi sohasining tadqiqotchilaridan biri A.Tokvil taklif qilgan.

Xarajatlar majburiyatlarining bir qismini byudjet tizimining quyi darajalariga berilishi shart, chunki mustaqil byudjetlarni boshqaradigan hokimiyat organlari mavjud. Bunda turli darajadagi hokimiyat organlarining asosiy funktsiyalaridan biri ushbu ma'muriy-

hududiy birlik rezidentlarining talab-hohishlariga muvofiq holda, mahalliy ijtimoiy ne'matlarni taqsimlashdan iborat bo'ladi, fuqarolar ma'muriy-hududiy tuzilmaning turli bo'g'inlarida taklif etilayotgan ko'p turli ijtimoiy ne'matlardan o'zi uchun eng maqbulini tanlab olish imkoniga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ne'matlarni taklif etish optimal darajasining asosiy sharti-butun jamiyat uchun ijtimoiy va xususiy ne'matlar o'rtasidagi nisbatni me'riy normalari asosida bo'lishni takozo etadi. Ma'lumot olishning maqsadi-jamiyat mehnat resurslarini qiymatini oshirish, xususiy ta'lim inson kapitali ko'paytirish, demak, kelajakda kutiladigan shaxsiy daromadni oshirishdan iborat.

Turli darajadagi byudjetlar uchun qaysi davlat xizmatlarini moliyalashtirish bo'yicha vakolatlarni berish va qay darajada ularning zimmasiga yuklash lozim degan masalaga javob berish mumkin emas, bu masalaning yechimini xarajatlar majburiyatlarini taqsimlashda davlat xarajatlarining samaradorligini tadqiq etish orqali izlash kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan sohalarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, davlat xizmatining ayrim turlarini mahalliy hokimiyat organlari orqali taqdim etish orqali ularni samaradorligini oshirish mumkin. «Bunday holda mintaqada aholining turmush farovonligi ta'minlaydigan davlat xizmatining tarkibi va sifati aniqlanishi kerak».[2] Mazkur muammolarni yechish uchun davlat xarajatlarining samaradorligi oshirish bo'yicha turli mamlakatlardagi xarajatlar majburiyatlarini taqsimlanish variantlarini ko'rib chiqish zarur.

Jahon amaliyotida xarajatlar majburiyatlarini taqsimlashning xilma-xil modellari va shunga mos moliyalashtirish mexanizmlari qo'llaniladi. Bunda o'z daromad bazasidan tashqari va byudjet tizimining yuqori darajasidan keladigan transfertlarning bo'lishi davlat ijtimoiy xizmatni ko'rsatishda mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining muxtorlik darajasidan guvohlik beradi. Xorij tajribalari ko'rsatadiki, transfertlarga bog'lanib qolish hududlarning aholi talab-istaklariniga javob beradigan byudjet siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish mustaqilligini chegaralab qo'yadi.

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlashdagi jarayonlar, jumladan, byudjet ijrosining bajarilishini qat'iy ta'minlashda, byudjetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda va byudjet mablag'laridan maqsadli, samarali foydalanishda byudjet intizomini mustahkamlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish lozim. Buning uchun, birinchi navbatda, har qanday xarajatlar majburiyatining uch tarkibiy qismga-qonun bilan tartibga solish, moliyalashtirish va ma'muriy boshqarishga bo'linishiga e'tibor berish zarur.

Lekin, deyarli barcha mamlakatlarda quyi hokimiyat darajalari zimmasida qoldirilgan xizmatlarning ayrim turlari mavjud. Bu o'rinda gap «birinchi navbatda uy-joy-kommunal xo'jaligi, hududni obodonlashtirish, mahalliy tarnsport qatnovi, yong'indan himoya, huquq-tartibotni muhofaza qilish va boshqalar sohasidagi xizmatlar haqida bormoqda. Bundan tashkari, davlat boshqaruvining quyi bo'g'inlariga uchta asosiy xarajatlar turini birkitib qo'yishning maqsadga muvofiqligi ham ta'kidlanadi, bular ijtimoiy ta'minot, ta'lim va

sog'liqni saqlashga xarajatlaridir. Lekin ijtimoiy soha xarajatlarini boshqarish bo'yicha vakolatlarni mahalliy darajaga berishda daromadlarni shakllantirish sohasidagi muayyan vakolatlar bilan qo'shib berish yoki yuqori turuvchi byudjetdan moliyalashtirishning doimiy qoidalarini joriy qilish mumkin.

Bugungi kunda xarajat vakolatlarining respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida chegaralanishi tizimlashmagan shaklga ega. Moliya vazirligi va mahalliy moliya organlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish vaqtidayoq paydo bo'ladi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirayotganda Moliya vazirligi o'z imkoniyatlaridan, ya'ni rejalashtirilayotgan daromadlardan kelib chiqadi.

Hududlar darajasida esa xarajatlar rejalashtirilishi ehtiyojlardan kelib chiqadi va bu Moliya vazirligi rejasidan oshib ketadi. Kelishuv jarayonida mahalliy byudjetlar xarajatlarining daromad bazasidan kelib chiqadigan oqilona varianti aniqlanadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirayotganda kelishmovchiliklarni bartaraf qilish normativlaridan foydalanilgandagina mumkin bo'ladi.

Hozirgi bosqichda mahalliy byudjetlar xarajatlarini yo'nalishlar bo'yicha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha normativlar asosida, tuman koeffitsientlarini hisobga olib baholash, bizning fikrimizcha, eng maqbul usul hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xarajatlarni taqsimlanishi davlat hokimiyatining turli darajalari o'rtasidagi to'qnashuvlarga klassik misol bo'la oladi. Maktabgacha tarbiya, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim byudjet tizimining qaysi darajasidan moliyalashtirilishi kerakligi masalasida mamlakatlararo katta farqlar kuzatiladi. Amalda jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlarda bepul boshlang'ich ta'lim ham bepul va oliy ta'lim davlat tomonidan subsidiyalanadi.

Lekin, boshlang'ich ta'limni mahalliy moliyalashtirish-ning maqbulligiga quyidagi dalillar asos bo'ladi: birinchidan, ta'lim xizmati hududiy jihatdan kengroq tarqalgan bo'lishi lozim; ikkinchidan, kichik maktablar odatda yuqoriroq ta'lim darajasini ta'minlaydi; uchinchidan, o'quvchilar ota-onalarining maktab ishlarida bevosita ishtirok etishi boshlang'ich ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigina omil hisoblanadi.

Ayni paytda shuni ham ta'kidlash lozimki, ko'rsatilgan xarajatlar va ta'lim sifatining mintaqalararo tabaqalanishi ta'lim xarajatlarini markazlashtirmaslik oqibati hisoblanadi, bu esa mintaqalarning daromadlarga ko'ra tabaqalanishini kuchaytiradi, xalos. Shu sababli ko'pgina mamlakatlarda ta'lim xizmatlarini moliyalashtirish bo'yicha markazlashtirilmagan xarajatlar vakolatlari bilan bir qatorda minimal ta'lim standartlari ham joriy etilgan.

Sog'liqni saqlash sohasida xususiy va davlat sektorining turli rol o'ynashi, bu xizmatlarni moliyalashtirish borasida turli darajadagi hokimiyatlar munosabatlariga ham ta'sir etadi. Masalan, sanitariya-epidemiologiya xizmati, profilaktika tibbiyot muassasalari, odatda, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan boshqariladi va moliyalashtiriladi. Yuqumli kasalliklarning tarqalishini bartaraf etish samaraliroq bo'lishi uchun moliyalashtirish davlat hokimiyatining yuqori darajalari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

SHuni ta'kidlash lozimki, soliqlarni davlat hokimiyati darajalari o'rtasida taqsimlashda xarajatlar majburiyatlarini markazlashtirmaslik tamoyiliga asoslanishi mumkin. Bu tamoyilga ko'ra, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining davlat moliya resurslarini taqsimlash funktsiyalari asosan ma'muriy-hududiy birlik aholisiga davlat xizmatlarini bevosita ko'rsatishdan iborat bo'lishi lozim.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, byudjet federalizmi nazariyasiga ko'ra resurslarni markazlashtirmaslik usullari, o'z-o'zini boshqaradigan hududiy birliklar miqyosini, ularning byudjetlarini to'ldirish va xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmlarini oqilona tanlash tamoyillariga javob beradigan jihatlar, tendentsiyalar mavjud. Byudjet federalizmi nazariyasi iqtisodiy samaradorlik tamoyiliga javob beradigan byudjet tuzilmalarining o'zaro munosabatlari va ta'sirini o'rganadi.

Haqiqiy byudjet federalizmi faqat ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarni belgilashdan iborat emas, balki, ularni ta'minlash uchun moliyaviy zahiralarni shakllantirishda ham bir qadar mustaqillikni nazarda tutadi. Utish davrida hududlarning daromad bazasidagi notekisliklarni bartaraf etish murakkab masala bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda byudjet federalizmini rivojlantirish faqat iqtisodiy omillarga bog'liq emas.

Keyingi yillarda ko'pgina xorij mamlakatlaridagi boshkaruv tizimini transformatsiyasining asosiy elementi nomarkazlashtirishdir. Lekin har bir mamlakatlarni alohida olinganda ularning talabi va holati har xil. Nomarkazlashtirishni amalga oshirishning yagona formulasi yo'q, nomarkazlashtirishni boshlanishining mezonlari belgilanmagan.

Lekin shunga qaramasdan, nomarkazlashtirishning maqsadi bitta; davlat xizmatini sifatini oshirish, mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini taqsimlash, qimmat turadigan markazlashtirishdan qutilish va yanada samarali hamda egiluvchan tizimga o'tish. Eng asosiysi siyosiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdir».[3]

O'zbekiston Respublikasida, ayniqsa, islohotlarning hozirgi bosqichida jami bo'g'inlarda chin demokratik institutlarning qaror topishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu narsa kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning zaruriy shart-sharoiti ham hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati byudjet federalizmi amaliyotini rivojlantirish va kengaytirish bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Gap shundaki, byudjetni markazlashtirmaslikning ma'nosi va afzalligi ham davlat munitsipal organlarning hududiy tabaqalashuvini hisobga olgan holda aholining talab-ehtiyojlarini to'g'ri baholash qobiliyati bilan belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan taxdillardan xulosa chiqarishimiz mumkin. Demak, hokimiyatni demokratik asosda qurish, mahalliy muammolarni hal etishga fuqarolarning jalb etilishi byudjet xarajatlariga ta'sir etadi. Chunki O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida byudjet tizimlarining o'zaro munosabatlarini rivojlantirish ikki asosiy talabga-kuchli fuqarolik

jamiyatini shakllantirish va mamlakatda iqtisodiy va ijtimoiy hayotni xar tomonlama erkinlashtirishga javob berishi talab qilinadi.

«Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi va RF sub'ektlarining turli sohalarda ishlarni olib borish va vakolatlarini chegaralash byudjet federalizmi asoslarini tashkil etadi».[4]

Rossiya Federatsiyasida byudjet federalizmiga asosan alohida ish olib borish sohalari quyidagilardan iborat:

- ◆ federal davlat mulkini boshqarish;
- ◆ federal siyosat va Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, madaniy rivojlantirish bo'yicha federal dasturlar asoslarini belgilash;

♦ federal byudjet, federal soliqlar va yig'imglar, mintaqaviy rivojlantirishning federal fondlarini boshqarish.

Rossiya Federatsiyasi va RF sub'ektlarining byudjet federalizmiga asosan birgalikda ish olib borish sohalari quyidagilardan iborat:

♦ umumiy tarbiya masalalari, ta'lim, fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish;

♦ sog'liqni saqlash, oilani, ona va bolalikni himoya qilish, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoyalash;

♦ davlat mulkini chegaralash;

♦ er, suv va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish;

♦ tabiatni alohida qo'riqlanadigan hududlarida atrof-muhitni muxofaza qilish va ekologik tozalikni ta'minlash;

♦ soliqqa tortish va yig'imlarning umumiy tamoyillarini belgilash;

♦ ma'muriy, mehnat, oila, turur-joy, yer, o'rmon, suv atrof-muhitni qo'riqlash qonunchiligini ishlab chiqish;

♦ davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlari (boshqarish) tizimini tamoyillarini belgilash.

Byudjet federalizmi aslida samarali bo'lishi uchun, birinchidan, muayyan hududga naf beradigan ijtimoiy ne'matlarni yetkazib berishga taaluqli qarorlar markazlashtirilmagan tarzda qabul qilinishi kerak. Ikkinchidan, naflikni mahalliyashtirish, xarajatlarini ham hududlashtirish talab etiladi, ya'ni mintaqa mahalliy ijtimoiy ne'matlar yetkazib berishni moliyalashtirish javobgarligini o'z zimmasiga oladi. Uchinchidan, mahalliy ijtimoiy ne'matlarga kiradigan afzalliklar mintaqalar doirasida ko'proq farqlanadi, biroq bu esa mintaqa aholisining butun mamlakat aholisiga qaraganda ko'p jihatlardan bir xil bo'lishini nazarda tutadi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ne'matlarni yetkazib berishda markazlashtirmaslik afzalliklaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayni paytda mintaqalarning resurs imkoniyatlari bir xil emas, bu esa mahalliy ne'matlardan aholining bahramand bo'lishida g'oyat katat farqlar bo'lishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun ne'matlarni iste'molchilar o'rtasida adolatli taqsimlash uchun ijtimoiy sektor resurslarini mintaqalar o'rtasida qayta taqsimlashni qo'llashga to'g'ri keladi. Demak, mahalliy byudjet daromadlari uning funktsiyalariga muvofiq kelishi lozim. Bu byudjet federalizmining eng muhim asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishni ham tezlashtirish byudjet federalizmi tamoyillariga asoslangan byudjetlararo munosabatlarning yangi tartibini shakllantirish asosida amalga oshirilishi kerak. Byudjetlararo munosabatlarning bosh muammosi bu daromad va xarajatlarni o'zaro muvofiqlashtirishdir. Buning asosiy vazifasi quyi byudjetlar mustaqilligini kafolatlash hisoblanadi.

Boz ustiga, respublikada YaIMni yaratishda mintaqalarning hissasini hisobga olish diqqatga sazovor. Hozirgi davrda mintaqalar hissalarini qiyoslaydigan bo'lsak, ularning YaIMni yaratishdagi hissalarini mintaqalar mahalliy byudjetlarining xarajatlari salmog'iga muvofiq kelmaydi.

Bu dinamika ayrim mintaqalarda byudjetlar xarajatlaridagi hissa YaIM dagi hissadan barqaror ortiq bo'lsa, YaIMda bir qator mintaqalarning hissabay ishtirokini qisqarib

ketganligini ko'rsatadi. Demak, byudjetlararo munosabatda daromadni qayta taqsimlashda ustivorlik beriladi. Islohotlarni erkinlashtirish sharoitida bu holat mahalliy soliqlar holatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi lozim.


SHunday qilib, mahalliy byudjetlar ehtiyojlari ularning amaldagi byudjet xarajatlari chegarasida shakllandi, bu esa byudjet federalizmi tamoyillariga zid bo'lib chiqadi. Qayd etamizki, mahalliy byudjetlarning ijtimoiy funksiyalari xarajatlar tarkibi ko'rinishida o'z daromadlari bilan ko'proq ta'minlanishi kerak. Odatda, qoida tarzida bu xarajatlarning hammasi markazlashtirilgan holda oldindan belgilangan bo'ladi. Byudjet federalizmini rivojlantirish nuqtai nazaridan mahalliy byudjetlarning o'z vazifalarini bajarishini ta'minlaydigan daromadlarning qanday shakllanishi g'oyat muhim masala hisoblanadi.

2021- yil yanvar-sentabr yakunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot hajmi **519 825,1 mlrd. so'm**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,9 %** ga o'sdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar kesimida tahlil qilinsa, yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent sh. (**87 815,6 mlrd. so'm**), Toshkent (**57 232,3 mlrd. so'm**) va Navoiy (**41 992,3 mlrd. so'm**) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda YAHMning yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (**114,1 %**), Sirdaryo (**111,6 %**) va Toshkent (**109,6 %**) viloyatlarida qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida



Yalpi ichki mahsulot hajmi hududlar kesimida.[6] 1-rasm.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini belgilashda shu hududda yaratiladigan - YaIMni asosiy omil tarzida qabul qilishni talab etadi. Biroq, mahalliy byudjetlarga ajratmalar

me'yorlarini belgilashning byudjet amaliyoti bilan mintaqalardagi real xo'jalik natijalari o'rtasida hech qanday bog'liqlik yo'q. Natijada byudjetlararo munosabatlar masalalari chetda qolib ketadi. Vatanimiz olimlari tomonidan mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini ta'minlash maqsadida hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot notekisliklari hamda ziddiyatlarni muvofiqlashtirish, mahalliy byudjetlar huquq-majburiyatlari ortib borishi bilan mutanosib tarzda ular daromad bazasini mustahkamlash yaxlitligiga asoslangan «mahalliy byudjetlar taraqqiyotini kompleks dasturlash» tizimi ilmiy jixatidan yoritilishi taklif qilinmoqda.

Xulosa. Mintaqa byudjeti rivojlanishining asosiy omillari davlatning iqtisodiy potentsiali, aholi sonining ko'payishi, urbanizatsiya jarayonining o'sishi bilan belgilanadi. Mintaqa byudjetlarining o'sishi to'g'ridan-to'g'ri urbanizatsiya bilan, ya'ni, ijtimoiy - maishiy infratizimining kengayishi bilan bog'liq. Umumiy hajmda shahar va ovullar byudjetlarining ulushi o'sadi. Oqibatda shahar byudjetlari xarajatlarini keskin o'sishiga olib keladi, shaharlarda aholi sonining o'sishi, turar-joy kurish, kommunal - maishiy va obodonlashtirish tadbirlarining hajmi keskin ko'payishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda mahalliy sanoatni rivojlantirish va o'zining daromadlari hajmini ko'paytirishiga katta ahamiyat berilishi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Iqtisodiy mohiyatga ko'ra mahalliy byudjetlar - bu hududlarda halq xo'jaligini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, davlat boshqaruvini moliyalashtirishga qaratilgan byudjet jamg'armasini tashkil etish va ishlatish munosabati bilan milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha davlatning huquqiy va jismoniy shaxslar bilan vujudga keladigan pul munosabatlaridir. Mahalliy byudjet sababli hududlarda moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi jabhalariga jalb qilish imkoniga ega bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni. 2000 yil. 14 dekabr. 21-modda.
2. Gritsyuk. T.V. Problemm organizatsii gosudarstvennmx finansov v mnogourovnevoy strukture. Finansy. 2003. №7. str27.
3. Andik F. Detsentralizatsiya i gosudarstvennme finansm. // Ekonomicheskoe obozrenie. 2002. №10. str 11.
4. Babich A.M., Pavlova L.N. Gosudarstvennme i munitsipal'nye finansm. Uchebnik dlya vuzov. YuNITI. str164
5. <https://www.spot.uz/oz/2023/01/11/tax-revenues/>
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14744-hududlar-kesimida-yalpi-ichki-hududiy-mahsulot-hajmi>